

**Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatini
jonlantirish bo'yicha ularning hudud yoki yo'nalish
bo'yicha "ixtisoslashuvi"ni joriy qilish masalasi yuzasidan**

Olimov Shahriyor Orif o'g'li –

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti.

O'zbekiston Respublikasining "Mulliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq fan, adabiyot va san'at asarlarining mualliflari, ijrochilar, fonogrammalarni tayyorlovchilar yoki boshqa huquq egalari o'z mulkiy huquqlarini amalga oshirish maqsadida mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaradigan tashkilotlar (keyingi o'rinlarda – jamoat tashkilotlari) tuzishi mumkinligi belgilangan.¹

Ushbu jamoat tashkilotlari nodavlat notijorat tashkilotlar hisoblanadi va ularning faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Qonunga muvofiq ushbu turdagi tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan (keyingi o'rinlarda – vazirlik) davlat ro'yxatidan o'tkaziladi hamda nazorat qilinadi.²

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlashi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib berishi, shuningdek davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Mulliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining 56-moddasiga muvofiq huquq egalarning turli huquqlari va turli toifalari bo'yicha alohida tashkilotlarni yoki bir toifadagi huquq egalarning manfaatlarini ko'zlab turli huquqlarni boshqaruvchi tashkilotlarni yoxud turli toifadagi huquq

¹ O'zbekiston Respublikasining "Mulliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni.

² O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni.

egalarining manfaatlarini koʻzlab, huquqlarning bir turini boshqaruvchi tashkilotlarni tuzishga yoʻl qoʻyiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi “Nodavlat notijorat tashkilotlari toʻgʻrisida”gi Qonunining 30-moddasida nodavlat notijorat tashkiloti qonun bilan taqiqlanmagan hamda oʻzining taʼsis hujjatlarida nazarda tutilgan maqsadlarga muvofiq boʻlgan faoliyatning har qanday turini amalga oshirishi mumkinligi belgilangan.

Xalqaro tajribaga koʻra koʻplab davlatlarda jamoat tashkilotlari maʼlum bir yoʻnalishdagi muallif yoki boshqa huquq egalarining yagona toifasini ifodalaydi. Xususan, jamoat tashkilotlarining yoʻnalish boʻyicha ilk ixtisoslashuvi **1851-yil Fransiyada** yuz bergan boʻlib, oʻsha yili Fransiyada faqatgina bastakorlar manfaatini himoya qiluvchi **SACEM** jamiyati tashkil etilgan.

Xalqaro tajribada jamoat tashkilotlarining tegishli yoʻnalishlar boʻyicha ixtisoslashuvi **tabiiy jarayon (davlat aralashuvisiz) sifatida** shakllangan. Aksariyat davlatlar qonunchiligida jamoat tashkilotlarning ixtisoslashuviga oid tartib belgilangan boʻlib, ularning ixtisoslashuvi majburiy xarakterga ega emas.

Hozirgi kunda **Fransiyada 7 ta** yoʻnalishga ixtisoslashgan jamoat tashkilotlari faoliyat yuritadi. Bular: **Authors Society for Graphic and Plastic Arts, Audiovisual Translators Europe, Society of Dramatic Authors and Composers, Society of Authors Composers and Publishers of Music, Authors Society of Visual Arts and Fix Image, Civil society of the Multimedia Authors.**

Shuningdek, **Amerika Qoʻshma Shtatlari** ham jamoat tashkilotlarining yoʻnalish boʻyicha ixtisoslashuviga misol boʻla oladi. Bugungi kunga kelib AQShda **5 ta** jamoat tashkiloti turli xil yoʻnalishlarda mualliflarning mulkiy huquqlarini boshqaradi. Bunga misol sifatida **American Music Rights Association, Artists Rights Society, American Society of Composers, Authors and Publishers, American Society for Collective Rights Licensing va Directors Guild of America**larni keltirib oʻtish mumkin.

Buyuk Britaniyada ham jamoat tashkilotlari yoʻnalishlar boʻyicha ixtisoslashgan. Biroq Buyuk Britaniyada bir xil yoʻnalish boʻyicha faoliyat yurituvchi bir nechta jamoat tashkilotlari tashkil etilishi mumkin. Bu esa, oʻz navbatida,

ixtisoslashuvning monopoliyaga aylanib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Xususan, Buyuk Britaniyada musiqa yo'nalishida **PRS for Music and Phonographic Performance Limited (PPL)**, **Eos (The Broadcasting Rights Agency)**, **RadioPro Ltd va Music and Entertainment Rights Licensing Independent Network (MERLIN)** nomli 4 ta tashkilot faoliyat yuritadi. Umumiy hisobda Buyuk Britaniyada turli xil yo'nalishlar bo'yicha 20 dan ortiq jamoat tashkilotlari ro'yxatdan o'tgan.

Rossiya Federatsiyasida mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ixtisoslashuv shakllanmagan. Hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasida 4 ta jamoat tashkiloti faoliyat yuritadi. Ushbu 4 ta jamoat tashkiloti barcha yo'nalishlardagi muallif hamda boshqa huquq egalarning mulkiy huquqlarini boshqarishi mumkin.

Bulardan **Rossiya mualliflar jamiyati (RAO)** mamlakatdagi bastakorlar, shoirlar, dramaturglar, ssenariy mualliflari, tarjimonlar, xoreograflar, rassomlar, dekorativ san'at mualliflari, ijrochilar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlar, shuningdek, boshqa asar mualliflari hamda ularning huquqiy vorislarini birlashtirgan eng yirik jamoat tashkiloti hisoblanadi.

Qozog'iston Respublikasida jamoat tashkilotlarining faoliyat yuritishi boshqa davlatlardan biroz farq qiladi. Qozog'iston Respublikasining 1996-yilda qabul qilingan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuning 43-moddasiga muvofiq jamoat tashkilotlari **8 ta** yo'nalish bo'yicha tashkil etilishi mumkin.

Bundan tashqari, Qozog'iston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuning 46¹-moddasiga muvofiq jamoat tashkilotlari vakolatli organdan ushbu Qonunning 43-moddasida keltirilgan yo'nalishlar yuzasidan faoliyatni amalga oshirish bo'yicha akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani olishga haqli. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma vakolatli organ tomonidan beriladi hamda jamoat tashkilotlari uchun ushbu guvohnomani olish ixtiyoriy hisoblanadi.³

³ Qozog'iston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni.

Qozog‘istonda jamoat tashkilotlari Qonunda belgilangan jamoaviy boshqaruvning bir, ikki yoki undan ortiq yo‘nalishlarida faoliyat yuritish uchun akkreditatsiya guvohnomasini olishga haqli. Ushbu guvohnomani olish jamoat tashkilotlariga mulkiy huquqlarni boshqarish bo‘yicha shartnomalar tuzgan huquq egalari huquqlarini boshqarish bilan bir qatorda bunday shartnomalar tuzilmagan huquq egalari uchun ham mualliflik to‘lovlarini undirish huquqini beradi.

Hozirgi kunda Qozog‘istonda 13 ta jamoat tashkiloti ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ularning 3 tasi akkreditatsiya guvohnomasiga ega.

Gruziyaning 1999-yilda qabul qilingan “Mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuniga (**Law of Georgia on Copyright and Related Rights**) muvofiq mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning faoliyatiga nisbatan raqobat to‘g‘risidagi cheklashlar qo‘llanilmaydi.⁴ Shunday bo‘lsa-da, mamlakatda hozirgi kunga qadar 6 ta jamoat tashkiloti ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, jamoat tashkilotlarining ma‘lum bir yo‘nalish bo‘yicha ixtisoslashuvi mavjud emas.

GCA (Gruziya mualliflik huquqi assotsiatsiyasi) Gruziyada faoliyat yurituvchi eng yirik jamoaviy boshqaruv tashkiloti hisoblanib, mualliflik va turdosh huquq egalari tomonidan 1999-yilda tashkil etilgan.

Ushbu tashkilot 2000 dan ortiq mahalliy a‘zolariga ega. **GCA** mualliflik huquqi va turdosh huquqlardan foydalanish uchun litsenziyalar berish, mualliflik to‘lovlarini undirish va huquq egalari tarqatish orqali mualliflik va turdosh huquq egalari huquqlarini jamoaviy asosda boshqaradi.

Italiyada 2018-yilga qadar faqatgina bir dona jamoat tashkiloti faoliyat yuritgan. Bu – Italiya mualliflar va noshirlar jamiyati (**Società Italiana Artisti ed Editori – SIAE**) bo‘lib, u 1882-yilda tashkil topgan hamda 2018-yilga qadar mamlakatda monopol mavqeda bo‘lgan.

Biroq Italiya singari iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak rivojlangan hamda aholi nufuzi bo‘yicha ham Yevropada yetakchilardan hisoblanuvchi davlatda faqatgina bir dona jamoat birlashmasining faoliyat yuritishi qator muammolarni

⁴ Law of Georgia on Copyright and Related Rights.
www.tadqiqotlar.uz

keltirib chiqargan.

Xususan, bozorda raqobatchilarning yoʻqligi ushbu jamoat tashkilotiga yuqori tarif narxlarini belgilash imkonini bergan. Bu esa mualliflik va turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanuvchi shaxslarning noroziligiga sabab boʻlgan.

Bundan tashqari, samarasiz boshqaruv hamda xodimlar sonining koʻpligi va ijara narxlarining yuqoriligi ham jamoat tashkilotini moliyaviy jihatdan qiyin ahvolda tushirib qoʻygan.

Bu esa SIAning qonun darajasida belgilangan monopol xarakteri bekor qilinishiga va 2018-yildan Italiya hududida boshqa NNTlarga ham mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqarish huquqining tatbiq etilishiga ruxsat berilishi bilan yakunlandi. Bu huquq egalarining oʻz asarlariga boʻlgan har qanday mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqarish uchun tashkilotni erkin tanlash imkoniyatiga ega boʻlishi kerakligi bilan izohlanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, jamoat tashkilotlari butun dunyoda deyarli bir xil asosda faoliyat yuritadi. Xususan, barcha davlatlarda jamoat tashkilotlari nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanib, ularning yoʻnalish boʻyicha ixtisoslashuvi **davlat aralashuvisiz, tabiiy jarayon sifatida** amalga oshgan.

Jamoat tashkilotlarning yoʻnalish boʻyicha ixtisoslashuvi ular tomonidan yigʻilgan haqni bevosita muallif yoki boshqa huquq egalariga taqsimlashda yuzaga kelayotgan tushunmovchiliklar bartaraf etilishiga xizmat qiladi.

Biroq ushbu ixtisoslashuvning majburiy tarzda joriy etilishi quyidagi salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin:

birinchidan, jamoat tashkilotlari oʻrtasida raqobat yoʻqolishiga hamda mualliflik haqini yigʻish va taqsimlashni istalgan tarifda amalga oshirilishiga;

ikkinchidan, jamoat tashkilotlari oʻrtasida nosogʻlom muhitning vujudga kelishiga;

uchinchidan, korrupsion omillarning kelib chiqishiga;

toʻrtinchidan, amalda faoliyat yuritib turgan jamoat tashkilotlari uchun turli xil qiyinchiliklar hamda muammolarning vujudga kelishiga sabab boʻladi.

Shuningdek, jamoat tashkilotlari oʻrtasidagi muammolarni bartaraf etish

maqsadida huquqni qo'llash hamda mualliflik haqini taqsimlashda ular o'rtasida vujudga kelayotgan nizolarni sudlar orqali hal etish amaliyotini kuchaytirish lozim.

Bundan tashqari, jamoat tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida mualliflik haqini yig'ish va taqsimlash jarayonlarini to'liq elektronlashtirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.1. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar haqida"gi Qonun. 2006-yil 21-iyul.
- 1.2. Qozog'iston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni.
- 1.3. Law of Georgia on Copyright and Related Rights.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni.

Internet saytlari va elektron manbalar

- 4.1. www.opil.ouplaw.com
- 4.2. www.lexisnexis.com
- 4.3. www.lex.uz
- 4.4. www.wto.org
- 4.5. www.wipo.int
- 4.6. www.minjust.uz